

**ONA TILI DARSALARIDA HIKMATLI SO`ZLARNI LUG`ATLAR
YORDAMIDA OCHIQLASH**

Berdiyeva Malikaxon Abdukaxxorovna
ToshDO`TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada o'quvchilarning nutqini o'stirishda ona tili fanining o'rni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Metod, kompetensiya, hikmatli so`zlar, muhokama, grammatika, ta'lim, texnalogiya.*

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'l mish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlarstrategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi mакtab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi. Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi - o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqeahodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar.

Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki darslikda berilgan topshiriq va matnlarda o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan so`zlar, jumlalar uchrab turadi. Hikmatli so`zlarni topshiriqlar davomida o'qiganimizda, albatta, lug`atga murojaat qilamiz. Sharq allomalarining purma`no fikrlari avloddan avlodga o'tib, sayqallanib yanada

kuchliroq ta`sirga ega bo`lmoqda O`tmishda yashab o`tgan olimlar, katta hayot tajribasiga ega ulug` insonlaraytgan hikmatli so`zlar o`quvchilarning dono hamrohidir. Boshqalar so`zidan farqli ravishda , bu so`zlar go`yo chanqoq qalblarga obihayotdir. Hikmatli so`zlar orqali hayotda uchraydigan muammolarga oson yechim topish haqida tasavvur uyg`otish kerak. Hazrat Alisher Navoiy : “Agar hikmat o`rganishga intilsangiz, hikmatni sevsangiz, umringiz Nuh payg`ambar umridek uzoq bo`lsin”, - deganlar.

Aql yomonlikka qaratilsa, inson **razil, makkor**, aldamchi
bo`lib qoladi. (Abu Nasr Forobiy)

Mazkur hikmatli so`zni ona tili darsida 5- sinf o`quvchisiga tushuntirish uchun lug`at bilan ishslash kerak. “ O`zbek tilining izohli lug`ati’ da quyidagicha izohlanadi: RAZIL [arabcha: pastkash, palid; axloqsiz, buzuq] 1. Kishini jirkantiradigan; yaramas, qabih, past, tuban. 2. Manfur, mal`un.

MAKKOR [arabcha: ayyor, hiylagar (odam) 1. Makr- hiylaga usta: 2. Makr- hiylaga asoslangan , makrli. Hikmatli so`zlar bilan ishlayotganimizda quyidagi jihatlarga ahamiyatni qaratish kerak:

1. ***O'quvchilarни notanish so'zlar bilan tanishtirish.*** O'quvchilar darslikdagi so'zlarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi uning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. so'zlarga duch keladilar. Bunday so'zlamning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishslash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. ***O'quvchilarни so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.*** Ko'p hollarda so'zning tarkibini aniqlashda so'zdagi fonetik o'zgarishlar qiyinchilik tug'diradi. Tillarni kuzatishdan ma'lumki, morfologik ko'rsatkichlar yo mustaqil ma'noli leksemalardan, yoki har xil qo'shimchalarining o'zaro birikib yangi qo'shimcha hosil qilish usulidan shakllanadi. Ko'pgina so'zlar qo'shilib ketishi natijasida ikkinchi qism morfemaga aylanib ketishi mumkin:

Bu esa 5-sinf darsligida ko'p uchraydi.

3. Ba`zi o`rinlarda hikmatli so`zlarning mazmunini to`liqroq anglash uchun turli o`yinlardan ham foydalanish mumkin

Alisher Navoiyning hikmatli so`zları:

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir, barcha xalqlar uchun yoqimlidir. Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor qiladi.

Yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo`ladilar. (“Ibratli hikoyatlar”dan)

O`yinlar orqali milliy qadriyatlarimizdan, o`zbekona me`rosimizdan foydalanib, qadr-qimmat, mehr-oqibat, odob-axloq, ota-onal va kattalarni hurmat qilish kabi xislatlarni bola qalbiga singdirish mumkin. Masalan: “Odobli bola”, o`yinida sinf guruhga bo`linib, har guruhdan bir o'quvchi ishtiroy etadi.

O'qituvchi: -Xo'sh bolalar, odobli bola ertalab, o'rnidan turib nima qiladi".

O'qituvchi: -Odobli bola erta barvaqt turib, badan tarbiya qiladi, ota-onasiga va oila a'zolariga salom beradi.

O'quvchi: -Odobli bola qanday salom beradi?

O'qituvchi: -“Assalomu alaykum” deb salom beradi, keyin nonushta qiladi.

O'qituvchi: -Odobli bola dasturxon atrofida qanday o'tiradi.

O'qituvchi: -Odobli bola kattalardan pastda o'tiradi, “Bismillohir rahmonir rahim”, deb dasturxonga kattalardan keyin qo'l uzatadi, og'zida ovqat bilan gapirmaydi.

Shu kabi savol-javoblardan keyin guruqlar javobi izohlanib, to'plagan ballar e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

Bu xildagi dars-o'yin turdag'i mashg'ulotlar bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi, ularning mustaqil, ijodiy faoliyatini, lug'at boyligini oshirib, nutqini rivojlantirishga yordam beradi va darslarning uзви bog'liqligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, har bir darsda, u qaysi predmet bo'lishidan qat'iy

nazar, birinchi galdeg'i vazifamiz o'quvchilarning ongli, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishiga erishishimiz, nutqini o'stirishga harakat qilmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Babayeva D. R. “ Nutq o'stirish metodikasi”.:TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma
2. K. Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi, - Toshkent: Noshir, 2009.